

Xalq qo'shiqlaridan ta'lim jarayonida foydalanishning pedagogik imkoniyatlari

Zarnigor Burxon qizi Davronova
Buxoro xalqaro universiteti

Annotatsiya: Maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari, ayniqsa xalq qo'shiqlari ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning pedagogik asoslari yoritilgan. Xalq qo'shiqlari orqali o'quvchilarda estetik did, milliy o'zlik, ma'naviy va axloqiy fazilatlarni shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. O'zbek xalqi o'zining boy og'zaki ijodiy merosi bilan ajralib turadi. Xalq qo'shiqlari asrlar davomida xalqning ruhiyati, ijtimoiy hayoti, orzu-umidlari, kurashi va g'am-tashvishlarining ifodasi sifatida shakllangan. Ta'lim tizimida xalq qo'shiqlaridan pedagogik vosita sifatida foydalanish o'quvchilarda milliy ong, ijtimoiy faollik, badiiy did, nutqiy va musiqiy savodxonlikni rivojlantirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: xalq qo'shiqlari, ta'lim jarayoni, ta'lim tizimi, pedagogik imkoniyatlar, estetik tarbiya, xalq ijodi, madaniy meros, milliy qadriyatlar

Pedagogical possibilities of using folk songs in the educational process

Zarnigor Burkhan qizi Davronova
Bukhara International University

Abstract: The article covers the pedagogical foundations of using examples of Uzbek folk oral art, especially folk songs, in the educational process. The possibilities of forming aesthetic taste, national identity, spiritual and moral qualities in students through folk songs are considered. The Uzbek people are distinguished by their rich oral creative heritage. Folk songs have been formed over the centuries as an expression of the people's psyche, social life, dreams, hopes, struggles and anxieties. The use of folk songs as a pedagogical tool in the education system allows students to develop national consciousness, social activity, artistic taste, speech and musical literacy.

Keywords: folk songs, educational process, educational system, pedagogical opportunities, aesthetic education, folk art, cultural heritage, national values

O'zbek xalqi o'zining boy og'zaki ijodiy merosi bilan ajralib turadi. Bu merosning muhim qismini xalq qo'shiqlari tashkil etadi. Xalq qo'shiqlari asrlar davomida xalqning ruhiyati, ijtimoiy hayoti, orzu-umidlari, kurashi va g'am-

tashvishlarining ifodasi sifatida shakllangan. Ularda xalqning dunyoqarashi, axloqiy tamoyillari, urf-odatlari mujassam bo'lib, ularni yosh avlodga yetkazish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shunday vaziyatda xalq qo'shiqlarini ta'lim jarayoniga jalg qilish o'ta muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Xalq qo'shiqlari - xalqning ruhiy holatini, estetik qarashlarini, madaniy-milliy ongini ifoda etuvchi noyob badiiy-tarbiyaviy manba hisoblanadi. Bu qo'shiqlarda jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, xalqning hayotiy tajribasi, insoniylik, muhabbat, vatanparvarlik, mehr-oqibat kabi qadriyatlar mujassam. Qo'shiqlardagi obrazlar, poetik ifodalar, ritm va musiqiy ohanglar o'quvchilarda estetik didni shakllantirishda, go'zallikni his qilishda muhim vositaga aylanadi.

Misol uchun, "Kelin salom" yoki "Yor-yor" kabi marosim qo'shiqlarida oila qadri, urf-odatlар aks ettirilgan. Bu kabi qo'shiqlarni o'rganish orqali o'quvchilar milliy qadriyatlarni his etadi va o'zligini anglashga intiladi.

Ta'lim jarayonida xalq qo'shiqlari bilan ishslashning uslubiy yondashuvlari. Xalq qo'shiqlaridan ta'limda foydalanish uchun quyidagi yo'llarni ajratish mumkin:

- Fanlararo integratsiya: Adabiyot, musiqa, tarix, ona tili, tasviriy san'at kabi fanlarda xalq qo'shiqlaridan foydalanish orqali o'quvchilarda kompleks dunyoqarashni shakllantirish mumkin.

- Tahliliy faoliyat: Qo'shiqlardagi mazmun, obrazlar, til vositalarini tahlil qilish orqali o'quvchilarning badiiy tafakkuri, nutqi rivojlanadi.

- Ijodiy yondashuv: O'quvchilarga xalq qo'shiqlari asosida sahna ko'rinishlari tayyorlash, o'z qo'shiqlarini yaratish topshiriqlari berish orqali ularning ijodiy salohiyati oshadi.

- Musiqiy tarbiya: Qo'shiqlarni tinglash va kuylash orqali musiqa estetikasi, ritm, milliy ohanglarni anglash kabi ko'nikmalar shakllanadi.

O'quvchilarda milliy ong va ma'naviyatni shakllantirishda xalq qo'shiqlarining roli. Xalq qo'shiqlari yosh avlodga milliy g'urur, vatanparvarlik, o'zlikni anglash kabi fazilatlarni singdirishda beqiyos vositadir. Alla qo'shig'i orqali yurt tuyg'usi, ona diyorga mehr bola ongiga singdiriladi. Shu tariqa, xalq qo'shiqlari orqali:

Milliy o'zlikni anglash;

Tarixiy-madaniy merosga hurmat;

Oila, tabiat, mehnatga nisbatan ijobiy munosabat;

Estetik did va musiqiy savodxonlik singari pedagogik natijalarga erishish mumkin. Respublika miqyosida ayrim umumta'lim mакtablarida adabiyot va musiqa darslarida xalq qo'shiqlari asosida darslar o'tkazish bo'yicha tajribalar o'tkazilgan. Masalan, "Adabiyot va san'at uyg'unligi" mavzusida o'tkazilgan integratsiyalashgan darsda "Galdir", "Omon yor" kabi xalq qo'shiqlari asosida tahlil, dramatizatsiya,

kuylash mashqlari orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi va o‘z fikrini erkin ifoda etish ko‘nikmalari rivojlangan.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, xalq qo‘shiqlari - o‘zbek xalqining madaniy merosi bo‘lib, ularni ta’lim jarayoniga jalgan etish yosh avlodning barkamol, ma’naviyatli, estetik didga ega bo‘lgan shaxs bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi. Ta’lim tizimida xalq qo‘shiqlaridan pedagogik vosita sifatida foydalanish o‘quvchilarda milliy ong, ijtimoiy faollik, badiiy did, nutqiy va musiqiy savodxonlikni rivojlantirish imkonini beradi. Shuning uchun xalq qo‘shiqlari asosida ishlab chiqilgan metodik materiallar, dars ishlanmalari va integratsiyalashgan darslar orqali bu vositalarning samaradorligini yanada oshirish mumkin. Pedagoglar bu borada xalq ijodi asosida zamonaviy ta’lim texnologiyalarini uyg‘unlashtirgan holda ishlashlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunov R. Xalq musiqa ijodiyoti va amaliyoti. Toshkent. “Ma’rifatmadadkor” nashriyoti. 2002 yil.
2. Sharipova G. Musiqa o‘qitish metodikasi (ma’ruzalar matni) Toshkent 2008 yil.
3. Yuldasheva N., Raxmatova N. O‘zbek musiqa adabiyoti. Toshkent. “Iqtisodmoliya” 2010 yil.
4. I.I.Axtamov. Boshlang’ich sinflarda musiqa o‘qitishning interfaol metodlaridan foydalanish. Tafakkur manzili. 2024/5/22
5. I.I.Axtamov. The role of classical music art in higher musical and pedagogical education. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) Vol. 4 No. 6 (2023): wos 2023-06-17
6. I.I.Axtamov. Organization of classes on listening to samples of the national makom in primary schools. Academia Science. In Volume 4, Issue 5 of Academicia Globe: Inderscience Research (AGIR) May 2023
7. I.I.Axtamov. Musiqa madaniyati darslarida musiqa savodxonligi faoliyatining o’rni. Journal of advanced research and stability. 22.12.2022
8. I.I.Axtamov. Musiqa madaniyati darslarida xalq musiqasining o’rni. Science and Education 3 (1) 2022-01-18
9. I.I.Axtamov. Introducing students to the art of makom through music culture lessons. eurasian journal of academic research. Volume 1 Issue 03. 2021-06-10
10. I.I.Axtamov. Maqom an’anaviy kasbiy musiqa namunalarini o‘rganishda ovoz xususiyatlari. Scientific progress. ISSN 2181-1601/ 2021/03 B.648-653.
11. К.Б.Холиков. Манера педагогической работы с детьми одарёнными возможностями. Science and Education 4 (7), 378-383

12. К.Б.Холиков. Роль теоретичности и применения информационных систем в области теории, гармонии и полифонии музыки. *Scientific progress* 2 (3), 1044-1051
13. К.Б.Холиков. Образовательное учреждение высшего профессионального образования в музыкальной отрасли Узбекистана. *Scientific progress* 2 (6), 946-951
14. К.Б.Холиков. Задачи хора для вырождающегося нагруженного управления косвенного, противоположного и параллельно-двигающегося голоса. *Scientific progress* 2 (3), 690-696
15. К.Б.Холиков. Магнитные свойства тяготение к человеку многоголосного произведения музыке. *Scientific progress* 2 (3), 728-733
16. К.Б.Холиков. Дифференцированное обучение студентов на занятиях гармонии и анализа музыкальных произведений. *Scientific progress* 2 (3), 1038-1043
17. К.Б.Холиков. Звуковысотная организация и последовательность частей формы музыки. *Scientific progress* 2 (4), 557-562
18. К.Б.Холиков. Свободой выбора исполнительского состава в эпоху ренессанса. *Scientific progress* 2 (4), 440-445
19. К.Б.Холиков. Этапы формирования и перспективы развития инфраструктуры хорового коллектива. *Scientific progress* 2 (3), 1019-1024
20. К.Б.Холиков. Полуимпровизационные формы профессиональной музыки. *Scientific progress* 2 (4), 446-451
21. К.Б.Холиков. Область применения фугированных форм. Тройные и четверные фуги. Фугетта и Фугато. *Scientific progress* 2 (1), 1052-1059
22. К.Б.Холиков. Проблематика построения современных систем мониторинга объектов музыкантов в сфере фортепиано. *Scientific progress* 2 (3), 1013-1018
23. К.Б.Холиков. Содержание урока музыки в общеобразовательном школе. *Scientific progress* 2 (3), 1052-1059
24. К.Б.Холиков. Представление результатов измерений системы контроля параметров дыхания в вокальной пении. *Scientific progress* 2 (3), 1006-1012
25. К.Б.Холиков. Гармония к упражнению голоса их роль в регуляции мышечной деятельности при вокальной музыки. *Scientific progress* 2 (3), 705-709
26. К.Б.Холиков. Область применения двойные фуги. *Scientific progress* 2 (3), 686-689
27. К.Б.Холиков. Музыкально театральные драмы опера, оперетта. *Science and Education* 3 (2), 1240-1246

28. К.Б.Холиков. Фактуры, музыкальной формы, приводящие к структурной, драматургической и семантической многовариантности произведения. *Scientific progress* 1 (4), 955-960
29. К.Б.Холиков. Подбор состава хора и изучение музыкального материала в школьном возрасте 10-13 лет. *Scientific progress* 2 (3), 999-1005
30. К.Б.Холиков. О принципе аддитивности для построения музыкальных произведения. *Science and Education* 4 (7), 384-389